

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

XASANOVA SAIDAXON GANIJONOVNA

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XAVOTIRLANISHNI
DIAGNOSTIKA QILISH VA KORREKSIYALASH
(5-6 yoshli bolalar misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
psychological Sciences**

Xasanova Saidaxon Ganijonovna

Mahtabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishni diagnostika qilish va korreksiyalash
(5-6 yoshli bolalar misolida)3

Хасанова Саидахон Ганижоновна

Диагностика и коррекция тревожности у детей дошкольного возраста (на
примере детей 5-6 лет)25

Xasanova Saidaxon Ganijonovna

Diagnosis and correction of anxiety of preschool children. (example of 5-6 year old
children)47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications.....52

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

XASANOVA SAIDAXON GANIJONOVNA

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA XAVOTIRLANISHNI
DIAGNOSTIKA QILISH VA KORREKSIYALASH
(5-6 yoshli bolalar misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/P354 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turg'unov Abdurashid Abdumannobovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Sobirova Dilafruz Abduroziqovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.P.26.02. raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «_____» _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil «_____» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, psixologiya
fanlari doktori, dotsent

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
psixologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, psixologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayonlari millatning o'z genofondini sog'lomlashtirish masalasini avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanishini ahamiyatli vazifa sifatida belgilab bermoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bolalar har bir mamlakat aholisining o'rtacha 23-27 foizini tashkil qiladi¹. Shuni ta'kidlash kerakki, bolalar rivojlanishiga yonaltiriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini pasaytiruvchi turli sabablar orasida ulardagi xavotirlanishni korreksiyasiga muhtoj bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ylushi 22 % ni tasgkil etishi mavzusini yanada dolzarblashtiradi. Bu borada katta maktabgacha yosh davrida vujudga keladigan salbiy emotsional holatlar bolaning shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qilishi nuqtai nazaridan ulardagi qo'rquv va xavotirlanishning kelib chiqish sabablari va psixologik xususiyatlarini o'rganish dolzarb muammolardan bo'lib uni o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama sog'lom rivojlanishining nazariy-metodologik va amaliy asoslari hamda zamonaviy modelini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar tahliliga ko'ra, bolalarning individual-psixologik xususiyatlariga oila va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ijtimoiy muhit, kattalar bilan o'zaro munosabatlar ta'siri masalalarini maktabgacha ta'lim jarayonida o'rganish va ta'limning keyingi bosqichiga psixologik moslashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu borada bolalik davridan «kommunikativ axborot almashuv», «ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish», «o'z-o'ziga ishonish», «qo'rquv va xavotirlanishni korreksiyasi»ni aniqlashga bog'liq psixologik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda inson omilini rivojlantirishga oid islohotlar olib borilib, shaxsni xar tomonlama rivojlantirishning zarur xuquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini bosqichma-bosqich oshirish», «Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish»ga oid belgilangan vazifalar asosida² maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama intellektual salohiyati, emotsional holatlarining rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilganligi, jamiyatimiz a'zolari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarga oid masalalarni ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 16-dekabrda O'RQ-

¹ INSPIRE: Семь стратегий по ликвидации насилия в отношении детей. http://www.who.int/violence_injuryprevention/violence/inspire/ru (манбаага мурожаат санаси: 25.03.2020 й.).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

595-son «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan F.A.Akramova, Sh.Bekova, Sh.A.Do'stmuxammedova, Z.T.Nishanova, M.Norbosheva, F.F.Rasulova, I.Raximova, M.Taydjanova va boshqalar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlari, psixologik muammolarining psixodiagnostikasi, korreksiyasi va uni samarali tashkil etish masalalari nazariy va amaliy tomondan ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil davlat hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan B.G.Ananyev, Yu.M.Antanyan, L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, V.I.Garbuzov, I.V.Dubrovina, A.I.Zaxarov, A.N.Leontev, M.I.Lisina, G.M.Kodjaspirova, R.S.Nemov, L.F.Obuxova, A.M.Prixojan, A.S.Spivakovskaya, D.B.Elkonin va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida shaxsning yoshga doir psixologik xususiyatlarini aniqlash, bolalarning psixologik o'zgarishlarining sabab va oqibatlarini borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorij tadqiqotchilaridan V.Amen, L.A.Venger, Jo.Godfrua, M.Dorki, G.Eberleyn, J.A.Kelli, K.Levin, K.Rojers, B.Skinner, G.Sullivan, Ch.D.Spil'berger, S.S.Tomkins, R.Tamml, Z.Freyd, E.Fromm, Yu.L.Xanina va boshqalar tomonidan xavotirlanish holatining psixik asoslari ma'lum darajada ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-202001064-raqamli «Oliy ta'lim muassasalari negizida maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT)ning zamonaviy didaktik metodika ta'minotini yaratish» mavzusidagi amaliy doirasida bajarilgan (2020–2022-yy.).

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha yosh davri bolalarida xavotirlanish holatlari namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini aniqlash va xavotirlanishni korreksiya qilishning amaliy imkoniyatlarini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning darajaviy ifodalanishini shaxsiy va vaziyatga oid omillarining integrativ namoyon bo'lishini empirik tadqiq etish;

xavotirlanish darajasini baholashda ota-onaning bolani «emotsional rad etishi» bilan bog'liq ravishda tortinchoqlikning ortishi va o'z-o'zini qadrlash hissining pasayishi yetakchi mezon ekanligini ilmiy tadqiq etish;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish darajasini psixokorreksiyalash uchun ona-bola munosabatlariga integrativ o'yin texnologiyalari orqali ta'sir etish muhimligini aniqlash;

boladagi o'z-o'zini qadrlash darajasini oshirish orqali xavotirlanish hissini psixokorreksiyalashda irodaviy sifatlarni shakllantirish ustuvor harakterga ega ekanligi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishni diagnostika qilish va korreksiyalashni tadqiq etish jarayoni belgilangan bo'lib, tadqiqotda Andijon shahridagi 15-33-sonli MTT, hamda Samarqand shahridagi 94-98-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 5-6 yoshdagi bolalar jalb etilgan bo'lib, respondentlarning umumiy soni jami 218 nafarni tashkil etgan.

Tadqiqot predmetini maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishni diagnostika qilish va korreksiyalash jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning «Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasi, T.D.Martsinkovskayaning bolalarda o'zini-o'zi qadrlash darajasini aniqlovchi «Zina» metodikasi, G.Xomentauskasning bolaning o'z oilasi haqidagi tasavvurlarini aniqlashga oid «Oila rasmi» proyektiv metodikalardan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsientini qo'llash orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning darajaviy ifodalanishida emotsional holatlarni indifferent idrok etilishining hissiy o'zini-o'zi qabul qilishga identifikatsiyasi tufayli shaxsiy va vaziyatga oid omillarning integrativ namoyon bo'lishi dalillangan;

boladagi xavotirlanish darajasini baholashda ota-onaning bolani «emotsional rad etishi» bilan bog'liq ravishda tortinchoqlikning ortishi va o'z-o'zini qadrlash hissining pasayishi shaxslararo munosabatlarda intensiv namoyon bo'lishi tufayli o'z-o'ziga beradigan bahoning hissiy komponenti yetakchi mezon ekanligi dalillangan;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish darajasini psixokorreksiyalash uchun onadagi xavotirlarni bolaga proyeksiyalanishini «ona psixoemotsional holatini konstruktiv transformatsiyalash» asosida chegaralash muhimligi tufayli ona-bola munosabatlariga integrativ o'yin texnologiyalari orqali ta'sir etish zarurati isbotlangan;

boladagi o'z-o'zini qadrlash darajasini oshirish orqali xavotirlanish hissini psixokorreksiyalashda nizolashuvchanlik, aybdorlik hissi, tortinchoqlik sifatlariga korreksion-adaptiv ta'sir etish axloqiy hislarni rivojlanishiga olib kelganligi tufayli irodaviy sifatlarni shakllantirish ustuvor harakterga ega ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun «Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi» fanidan o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan; (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 30.12.2022-yildagi 429-sonli buyrug'i);

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik xizmatni tashkil etishning tashkiliy-metodik qo'llab-quvvatlashga asoslangan dasturiy ta'minot (psixolog-

portali.uz) ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Intellectual mulk agentligi guvoynomasi: № DGU 14267 20.01.2022 y.);

maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishning psixokorreksion mashg'ulotlari o'yin tamoyillariga asoslangan dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Intellectual mulk agentligi guvoynomasi: № DGU 22187 16.02.2023 y.).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot obyektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirishlarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentivligi, tanlagan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, izlanishlar aniq va reja bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi, tadqiqot davomida shakllantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etish, kontent-tahlil, t-mezoni va ma'lumotlarni qayta ishlash SPSS dasturi vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirish asoslari bolaning hissiy emotsional holatlari, irodaviy sifatlarning ortishiga ilmiy jihatdan yondashilganligi, ixtiyoriy diqqatning barqarorlashuvi, muloqotchanlikni rivojlanishida psixologik hususiyatlarini inobatga oluvchi psixodiagnostika va psixokorreksion choralarni ishlab chiqish imkoniyatini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan g'oyalar va olingan empirik ma'lumotlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning darajaviy ifodalanishini shaxsiy va vaziyatga oid omillarni aniqlashtirishga, oilada ota-ona va bola munosabatlari samaradorligini oshirish orqali boladagi tortinchoqlik hissining pasayishi, o'z-o'zini qadrlash hissini ko'tarishga, bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarni aniqlashtirishga, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida «Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya», «Psixokorreksiya» va «Psixologik maslahat» fanlarini amaliy manba bilan boyitishga hamda amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Maktabgacha yoshdagi 5-6 yoshli bolalarda xavotirlanishning psixologik xususiyatlari bo'yicha erishilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlarning darajaviy ifodalanishida emotsional holatlarni indifferent idrok etilishining hissiy o'zini-o'zi qabul qilishga identifikatsiyasi tufayli shaxsiy va vaziyatga oid omillarning integrativ namoyon bo'lishini dalillashga oid ilmiy ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 4-fevraldagi PM-15 buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 11-fevraldagi PM-15-m ma'lumotnomasi.) Natijada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning darajaviy ifodalanishini

shaxsiy va vaziyatga oid omillarning integrativ namoyon bo'lishini empirik tadqiq etish ta'minlangan;

boladagi xavotirlanish darajasini baholashda ota-onaning bolani «emotsional rad etishi» bilan bog'liq ravishda tortinchoqlikning ortishi va o'z-o'zini qadrlash hissining pasayishi shaxslararo munosabatlarda intensiv namoyon bo'lishi tufayli o'z-o'ziga beradigan bahoning hissiy komponenti yetakchi mezon ekanligi dalillangan xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 4-fevraldagi PM-15 buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 11-fevraldagi PM-15-m ma'lumotnomasi.) Natijada boladagi xavotirlanish darajasini baholashda ota-onaning bolani «emotsional rad etishi» bilan bog'liq ravishda tortinchoqlikning ortishi va o'z-o'zini qadrlash hissining pasayishi yetakchi mezon ekanligini ilmiy tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish darajasini psixokorreksiyalash uchun onadagi xavotirlarni bolaga proeksiyalanishini «ona psixoemotsional holatini konstruktiv transformatsiyalash» asosida chegaralash muhimligi tufayli ona-bola munosabatlariga integrativ o'yin texnologiyalari orqali ta'sir etish zarurati isbotlangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 4-fevraldagi PM-15 buyrug'iga asosan «Psixokorreksiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 11-fevraldagi PM-15-m ma'lumotnomasi.) Natijada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish darajasini psixokorreksiyalash uchun ona-bola munosabatlariga integrativ o'yin texnologiyalari orqali ta'sir etish muhimligi takomillashtirilgan;

boladagi o'z-o'zini qadrlash darajasini oshirish orqali xavotirlanish hissini psixokorreksiyalashda nizolashuvchanlik, aybdorlik hissi, tortinchoqlik sifatlariga korreksion-adaptiv ta'sir etish axloqiy hislarning rivojlanishiga olib kelganligi tufayli irodaviy sifatarni shakllantirish ustuvor harakterga ega ekanligi isbotlangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 4-fevraldagi PM-15 buyrug'iga asosan «Psixologik maslahat» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2023-yil 11-fevraldagi PM-15-m ma'lumotnomasi.) Natijada boladagi o'z-o'zini qadrlash darajasini oshirish orqali xavotirlanish hissini psixokorreksiyalashda irodaviy sifatarni shakllantirish ustuvor harakterga ega ekanligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 1 ta o'quv qo'llanma, 20 ta ilmiy ish chop etilgan, 1 ta dasturiy ta'minotga guvohnoma olingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosi ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalangan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusinnig dolzarbligi va zarurati asoslangan, ilmiy tadqiqot ishlari reja mavzulari bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan, uning o'rganilish darajasi tahlili keltirilgan, dissertatsion tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti keltirilgan, qo'llanilgan metodlar, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilish va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish muammosining nazariy metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida psixologik tadqiqotlarda xavotirlanish muammosini o'rganishning mohiyati va nazariy metodologik asoslari hamda xavotirlanishning yoshga xos ta'sirining sabab, oqibatlari va konseptual asoslari manbalar asosida ilmiy-nazariy tahlil qilinib, xavotirlanish hissining rivojlanishini juda yuqori va juda past darajasi hissiy-sezgilarning noto'g'ri namoyon bo'lishi, hissiy-sensorli moslashuvning belgisi natijasidir degan xulosaga kelishga asos bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili natijasida shunday xulosalar kelib chiqdiki, bolalardagi xavotirlanish rivojlanishining juda past darajasi bolalarning xavf-xatarni his qilmasligiga, juda yuqori darajasi shaxsiy xavotirlanishga aylanishi mumkinligi isboti keltirildi. Bolada xavotirning susayishi yoki ortishi hissiy holat buzilishiga olib kelishini kuzatilishi muammoni kengroq o'rganish zarurligini ko'rsatdi.


Yu.M.Antonyan fikricha, xavotirlanishning asosiy sabablaridan biri bolaning ishonchsizligini nazarda tutadi. U bola ishonchsizligini xavotirni his qilganda, bolaning ota-onasi tomonidan rad etilgani natijasida yuzaga kelishi mumkinligini ko'rib chiqadi. Ta'kidlanishicha, agar bolaning hissiy ehtiyojlari qondirilmasa, umuman, odamlar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyoji shakllanmasligi begonalashishga, atrof-muhitni rad etishga, dunyodan xavf kutishga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, xavotirlanish bu odamdan, joydan, faoliyatdan, hodisadan yoki obyektidan qattiq nafratlanish yoki qo'rquv hissi tanglikni keltirib chiqaradi. Barcha bolalar hayotning biron-bir nuqtasida xavotirga duch keladi. Garchi erta qo'rquv va xavotirlar o'tkinchi, odatiy va oxir-oqibat o'tib ketgan bo'lsa-da, xavotir qoldiqlari bolalarning normal rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Ma'lumki, xavotirlanish har bir yoshda ma'lum ijtimoiy omillar ta'sirida turlicha aks etadi. Xavotirni maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davriga xos jihatlarini o'rganish va kuzatish uning oqibatlarini aniqlash bolalalarda psixokorreksion ishlarni tashkil etish uchun muhimdir.

Tadqiqot dastlabki bosqichida maktabgacha tarbiya yoshi davrida xavotirlanish darajasini o'rganish natijasida xavotirlanish bolada quyidagi salbiy o'zgarish, buzilishlarga olib kelishi aniqlandi.

Umumiy hissiy emotsional holatlarning buzilishi, bolalarda doimiy kattalarning ishonchi va roziligiga muhtojligi, o'zlariga bo'lgan ishonchning pastligi va asabiylik holatlari.



1-rasm. Xavotirlanish holatlarining diagnostik usullari va prognozini belgilovchi omillar

Ijtimoiy xavotirlar bolalarda juda ham tortinchoqlik, notanish joy va insonlar orasida bo'lishni xohlamaslik, ota-onasiga simpiotik bog'liqlik va ovoz chiqarib o'qish shunga o'xshash jarayonlarda ko'rinadi.

Kompulsiv buzilish aksariyat maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatilmaydi, takroriy harakatlar majburiyatlar bilan yengillashtiriladi, masalan ota-onaning o'limi bunda umumiy xavotirlanish buzilishi bilan bir-biriga mos kelmaydi.

Vahima to'satdan, kutilmaganda sodir bo'ladigan holatga nisbatan kuchli jismoniy hislar – terlash, yurak urishining tezlashishi, ko'krak qafasidagi og'riqlar, titroq, nafas qisilishi, bosh aylanishi va ko'ngil aynishi kuzatilishi nuqtai nazaridan dissertatsiya mavzusining maqsadi, predmeti xususiyatlari shakllandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishni diagnostik tahlili**»ga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bobda xavotirlanishning turlari, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari va qo'llanilgan metodikalar keltirilgan. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda yuqori xavotirlanish hissining darajaviy ifodalanishi hamda xavotirlanishning vujudga kelishida oila munosabatlari omilining rolini o'rganish ikki bosqichda guruhiiy va inividual tarzda amalga oshirildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida maktabgacha yosh davri bolalarining xavotirlanish fenomenining darajaviy ko'rsatkichlarini aniqlash borasida bir qancha ilmiy validlikka ega bo'lgan metodikalar majmuini tahlil qilishni lozim topdik. Romanovanning «Mavjud bo'lmagan hayvon», L.Bellakning «Bolalarning appersepsiya testi, A.I.Lutoshkinaning «Rangli munosabatlar testi», M.A.Panfilovanning «Kaktus», A.I.Zaxarovning «Uydagi qo'rquvlar» hamda S.V.Velievaning «Parovozik» proyektiv metodikalari bolalardagi xavotirlanish

darajasining turli omillarini, keltirib chiqaruvchi oqibatlarini, psixofiziologik jihatlarini o'rganishga, aniqlashga asoslangan.

5-6 yoshli bolalarda xavotirlanishning darajaviy ko'rsatkichi jinsga muvofiq R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning «Bolalardagi xavotirlanish darajasini aniqlovchi» proyektiv metodikasi, bolaning «men»ini baholash maqsadida T.D.Martsinkovskaya «Zina» hamda G.Xomentauskas «Oila rasmi» usuli yordamida o'rganildi. Tadqiqotda katta maktabgacha yoshdagi jami 218 nafar bolalar, ulardan 93 nafari qiz bola va 125 nafari o'g'il bolalar jalb etildi. Tadqiqotimizning keyingi bosqichida katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'tkazilgan xavotirlanishni aniqlash metodikalarining o'zaro korrelyatsiya bog'liqligi tahlil etildi.

Tadqiqotimizning diagnostik bosqichi birinchi qismida bolalardagi xavotirlanish darajasini aniqlash maqsadida ularda R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning «Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash» proyektiv metodini tajriba va nazorat guruhlarida guruhiy va individual tarzda o'tkazdik. Bolalar bilan individual suhbat, ularning onalari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridan olingan anketa-so'rovnomasi asosida bolalardagi xavotirlanishning shaxsiy yoki vaziyatga doir ekanligi tahlil qilindi (anketa-so'rovnomasi ilovada berilgan). Olingan ma'lumotlar asosida bolalardagi xavotirlanishning shaxsiy yoki vaziyatga doir ekanligi tahlil qilindi. (1-jadvalga qarang)

1 - jadval

R.Temml, M.Dorki, V.Amenlar «Bolalar xavotirlanish darajasini» aniqlash metodidan olingan natijalar farqlari (Student t mezoni)

Shkalalar	Guruh	n	o'rtacha qiymat	dispersiya	t
Shaxsga doir xavotirlanish	Tajriba guruh	111	3	0,78	0,07
	Nazorat guruh	107	2,99	0,88	
Vaziyatga doir xavotirlanish	Tajriba guruh	111	2,96	0,81	0,31
	Nazorat guruh	107	2,92	0,80	

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, dastlab o'tkazgan tajribamizda eksperiment guruhida sinaluvchilar soni 111 nafar bo'lib, «Shaxsga doir xavotirlanish» shkalasi bo'yicha natijalarning o'rtacha qiymati 3 ballni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat guruhida 107 nafar sinaluvchilar qatnashgan bo'lib, «Shaxsga doir xavotirlanish» shkalasi bo'yicha ulardan olingan natijalarning o'rtacha qiymati 2,99 ballni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ular o'rtasidagi statistik farqni o'rganish maqsadida Student t mezoni orqali tahlil qilganimizda «Shaxsga doir xavotirlanish» shkalasi bo'yicha ularning natijalari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p > 0,05$; $t = 0,07$). «Vaziyatga doir xavotirlanish» shkalasi bo'yicha tadqiqotda olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, tajriba guruhida to'plangan ballarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 2,96

ballni, nazorat guruhida esa 2,92 ballni tashkil qildi. Ushbu natijalar bo'yicha ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p > 0,05$; $t = 0,31$).

Tadqiqotimizning ikkinchi qismida T.D.Martsinkovskaya «Zina» proyektiv metodikasi asosida bolani «men»ini baholashi ya'ni o'zini qadrlash, o'zini hurmat qilish hamda o'ziga bo'lgan ishonch darajalari tahlil qilindi. Tadqiqotda olingan natijalarni 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin. (2-jadvalga qarang)

2 - jadval

T.D.Martsinkovskayaning «Zina» proyektiv metodikadan olingan natijalar farqlari (Student t mezoni)

Shkalalar	Guruh	n	O'rtacha qiymat	dispersiya	t
O'z-o'zini qadrlash darajasi	Tajriba guruh	111	2,95	0,73	0,74
	Nazorat guruh	107	2,86	0,74	
O'z-o'zini hurmat qilish darajasi	Tajriba guruh	111	2,85	0,815	0,42
	Nazorat guruh	107	2,80	0,82	
O'ziga bo'lgan ishonch darajasi	Tajriba guruh	111	2,95	0,76	0,17
	Nazorat guruh	107	2,93	0,81	

Eksperiment guruhidagi sinaluvchilar bilan nazorat guruhida sinaluvchilar orasida «O'z-o'zini qadrlash darajasi» shkalasi bo'yicha tajriba guruhining o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 2,95 ballni, nazorat guruhida esa 2,86 ballni tashkil qildi. Ular o'rtasidagi statistik farqni o'rganish maqsadida Student t mezoni orqali tahlil qilganimizda ularning natijalari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p > 0,05$; $t = 0,74$). «O'z-o'zini hurmat qilish darajasi» shkalasi bo'yicha tadqiqotda olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, tajriba guruhida to'plangan ballarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 2,85 ballni, nazorat guruhida esa 2,80 ballni tashkil qildi. Ushbu natijalar bo'yicha ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p > 0,05$; $t = 0,42$). «O'ziga bo'lgan ishonsh darajasi» shkalasi bo'yicha tajriba guruhida to'plangan ballarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 2,95 ballni, nazorat guruhida esa 2,93 ballni tashkil qilgan bo'lsa, ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p > 0,05$; $t = 0,17$).

Tadqiqotimizning navbatdagi diagnostik bosqichida G.Xomentauskasning «Oila rasmi» proyektiv metodikasi bo'lib, bunda biz, asosan, bolaning o'z oilasi haqidagi tasavvurlari, oilaviy munosabatlarda xavotir darajalarini aniqladik. Metodika orqali qo'lga kiritilgan dastlabki empirik natijalar quyudagi jadvalda berilgan. (3-jadvalga qarang)

G.Xomentauskasning «Oila rasmi» metodikasi bo'yicha olingan natijalar farqlari (Styudent t mezoni)

Shkalalar	Guruh	n	O'rtacha qiymat	dispersiya	t
Oilada bolani rad etish	Tajriba guruh	111	1,32	0,12	0,43
	Nazorat guruh	107	1,31	0,12	
Oiladagi nizolar	Tajriba guruh	111	1,04	0,0063	-0,07
	Nazorat guruh	107	1,05	0,0059	
Xavotir	Tajriba guruh	111	1,28	0,04	0,99
	Nazorat guruh	107	1,25	0,06	
Tortinchoq	Tajriba guruh	111	0,95	0,008	0,77
	Nazorat guruh	107	0,94	0,014	

«Oila rasmi» metodikasi bo'yicha tajriba guruhida sinaluvchilar bilan nazorat guruhida sinaluvchilar orasida «Oilada bolani rad etish» shkalasi bo'yicha tajriba guruhining o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 1,32 ballni, nazorat guruhida esa 1,31 ballni tashkil qildi. Ular o'rtasidagi statistik farqni o'rganish maqsadida Styudent t mezoni orqali tahlil qilganimizda ularning natijalari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p>0,05$; $t=0,43$). «Oiladagi nizolar» shkalasi bo'yicha tadqiqotda olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, tajriba guruhida to'plangan ballarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 1,04 ballni, nazorat guruhida esa 1,05 ballni tashkil qildi. Ushbu natijalar bo'yicha ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p>0,05$; $t=-0,07$). «Xavotir» shkalasi bo'yicha tajriba guruhida to'plangan ballarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 1,28 ballni, nazorat guruhida esa 1,25 ballni tashkil qilgan bo'lsa, ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p>0,05$; $t=0,99$). «Tortinchoq» shkalasi bo'yicha tajriba guruhida to'plangan ballarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 0,95 ballni, nazorat guruhida esa 0,94 ballni tashkil qilgan bo'lsa, ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p>0,05$; $t=0,77$).

Maktabgacha yoshdagi bolalarning «xavotirlanish» darajasi gender xususiyatiga ko'ra, qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ya'ni, xavotirlanishning mazkur mezoni o'g'il bolalarda 42,3 %, qizlarda esa 35,2 % kabi ko'rsatkichlari qayd etildi. Demak, biz jinlar orasidagi tafovut holatlarini quyidagicha asoslashimiz mumkin: bu yosh davrida o'g'il bolalarning yosh xususiyatlari hamda individual xarakter xususiyatlari qiz bolalarga nisbatan «o'g'il bola qo'rqmas, jasur, kuchli bo'lishi kerak» degan motivatsion turtkiga asosan ishonchsizlikning pastligi bilan izohlaymiz.

Xavotirlanish yuqori bo'lgan bolalar kuzatilganda, tengdoshlari va kattalar bilan munosabati yaxshi emasligi, o'zlarini past baholashlari, o'z muvaffaqiyatsizliklariga juda sezgir bo'lishligi hamda keskin munosabat qilinganda ayrim mashg'ulotlardan voz kechishga moyil bo'lishini asoslashimiz mumkin.

Bolalarda o‘tkazilgan metodikalardan olingan natijalar asosida metodikalarning umumiy natijalari va har bir metodikaning aniqlovchi shkalalari bo‘yicha korrelyatsion tahlil olib bordik. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan. (4-jadvalga qarang)

4 - jadval

Bolalarda o‘tkazilgan xavotirlanishni aniqlash metodikalarining o‘zaro korrelyatsiya bog‘liqligi ko‘rsatkichlari (K.Pirsonning r-korrelyatsiyasi)

<i>shkalalar</i>	Shaxsga doir xavotirlanish	Vaziyatga doir xavotirlanish	Oilada bolani rad etish	Oiladagi nizolar	Xavotir	Tortinchoq	O‘z-o‘zini qadrlash darajasi	O‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi	O‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi
shaxsga doir xavotirlanish	1								
vaziyatga doir xavotirlanish	0,62***	1							
oilada bolani rad etish	-0,03	-0,001	1						
oiladagi nizolar	-0,02	-0,075	0,61***	1					
xavotir	-0,06	-0,04	0,63***	0,56***	1				
tortinchoq	0,003	-0,07	0,16*	0,18**	0,45***	1			
o‘z-o‘zini qadrlash darajasi	0,94***	0,65***	-0,003	-0,01	-0,01	0,03	1		
o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi	0,57***	0,9***	0,03	-0,01	0,02	-0,02	0,62***	1	
o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi	0,63***	0,96***	0,01	-0,06	-0,03	-0,08	0,66***	0,9***	1

*p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001;

Dastlab, R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning «Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasidan so‘ng bolalar bilan individual suhbat, ularning onalari hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilaridan olingan anketa-so‘rovnomasi yordamida xavotirlanishning shaxsiy yoki vaziyatga doir ekanligi aniqlandi va

shaxsiy yoki vaziyatga doir xavotirlanish darajalari bo'yicha shkalalarning o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqamiz. Tadqiqotda olingan natijalarga ko'ra, «Shaxsiy xavotirlanish» va «Vaziyatga doir xavotirlanish» o'rtasida yuqori darajada musbat ko'rinishidagi korrelyatsion munosabat mavjud bo'lib ($p < 0,001$; $r = 0,62$), bolada shaxsiy xavotirlanishning ortib borishiga mos ravishda vaziyatga doir xavotirlanishning ham ortishiga sabab bo'lishi tadqiqotda olingan natijalar asosida o'z isbotini topdi.

Tadqiqot davomida bolaning o'z oilasi haqida tasavvurlarini bilish maqsadida o'tkazilgan «Oila rasmi» proyektiv metodikasining har bir shkalasi bo'yicha o'zaro bog'liqlik darajasi o'rganib chiqildi. Tadqiqotda olingan natijalarga ko'ra, oilada bo'ladigan nizolar bolada ushbu vaziyatda o'zini past baholashga olib kelar ekan ($p < 0,001$; $r = 0,61$). Demak, har bir oilada bo'layotgan nizolarda bolalar oilada o'zining o'rni yo'qligini his qilishi, o'z kuchiga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga va o'ziga nisbatan past bahoning ortishiga sabab bo'lar ekan. «Oilada bolani rad etish», «xavotir» ($p < 0,001$; $r = 0,63$), «tortinchoq» ($p < 0,05$; $r = 0,16$) shkalalari o'rtasida ham manfiy korrelyatsion munosabat mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Demak, oilada bolani rad etish natijasida unda o'z kelajagi borasida xavotirlanishning ortib borishiga hamda bolada tortinchoqlikning yuzaga kelishiga sababchi bo'lar ekan. «Oiladagi nizolar», «xavotir» ($p < 0,001$; $r = 0,56$), «tortinchoqlik» ($p < 0,01$; $r = 0,18$) shkalalarining o'zaro korrelyatsion aloqasi hamda «xavotir» va «tortinchoqlik» ($p < 0,001$; $r = 0,45$) shkalalari o'rtasida ham musbat ko'rinishidagi korrelyatsion aloqa mavjudligi aniqlandi. Oilada nizolarning ortib borishi bolada xavotirlanishning ortib borishiga olib kelishi va buning natijasida bolada o'z kuchiga hamda o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga shu bilan birgalikda unda o'zini namoyon qila olmaslik, tortinchoqlik yuzaga kelar ekan.

Tadqiqot davomida bolalarning o'zini-o'zi qadrlash darajasini o'rganish maqsadida T.D.Martsinkovskayaning «Zina» metodikasini o'tkazdik va sinaluvchilardan olingan natijalar asosida metodikaning shkalalari o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlari o'rganildi. Unga ko'ra, «o'z-o'zini qadrlash darajasi», «o'z-o'zini hurmat qilish darajasi», «o'ziga bo'lgan ishonsh daraja»larida o'zaro yuqori darajada korrelyatsion munosabat mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Demak, bolada o'zini qadrlash darajasi pasayib borgan sari unda o'z-o'zini hurmat qilishi darajasi ($p < 0,001$; $r = 0,62$) ham, o'ziga bo'lgan ishonch ham, kamayib borar ekan ($p < 0,001$; $r = 0,62$). Shuningdek, o'z-o'zini hurmat qilish darajasining kamayib borishiga mos ravishda unda o'ziga bo'lgan ishonch ham kamayib borar ekan ($p < 0,001$; $r = 0,9$).

Bolada shaxsiy xavotirlanish darajasining ortib borishiga mos ravishda unda o'z-o'zini qadrlash darajasi pasayib borishiga ($p < 0,001$; $r = 0,94$), o'z-o'zini hurmat qilish darajasining pasayib borishiga ($p < 0,001$; $r = 0,57$), o'ziga bo'lgan ishonch darajasining pasayishiga ($p < 0,001$; $r = 0,63$) olib kelishi tadqiqotda olingan natijalar asosida o'z isbotini topdi.

Shuningdek, bolada vaziyatga doir xavotirlanish darajasining ortib borishiga mos ravishda unda o'z-o'zini qadrlash darajasi pasayib borishiga ($p < 0,001$; $r = 0,65$), o'z-o'zini hurmat qilish darajasining pasayib borishiga ($p < 0,001$; $r = 0,9$), o'ziga

bo'lgan ishonch darajasining pasayishiga ($p < 0,001$; $r = 0,96$) olib kelishi tadqiqotda olingan natijalar asosida o'z isbotini topdi.

«**Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishni korreksiyalash usullari**» deb nomlangan dissertatsiyaning uchunchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda maktabgacha yoshdagi bolalar xavotirlanish darajasini psixokorreksiyasining nazariy tahlili, psixokorreksion dastur va maktabgacha yoshdagi bolalarning xavotirlanish darajalari natijalarining tahlili va statistik tahlili bayon qilingan.

Psixokorreksion dastur quyidagi tartibda tashkil etildi:

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan «Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish darajasini tuzatish»ga oid psixokorreksion dastur 8 ta mashg'ulot, 41 ta mashqdan iborat bo'lib, ularning barchasi 32 soatga mo'ljallangan. Haftada 2 marta yuqoridagi mavzu yuzasidan o'yin tamoyillariga asoslangan amaliy trening mashg'ulotlari tarzida o'tkazildi. Korreksion dastur samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba hamda nazorat guruhidagi bolalardan qaytadan R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning «Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash» metodini o'tkazdik.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish darajasini psixokorreksiyalash uchun onadagi xavotirlarni bolaga transformatsiyalashuvi tufayli ona-bola munosabatlarini o'yin texnologiyalariga integratsiyalash orqali ta'sir etishning zarurati isbotlandi.

5 - jadval

Eksperiment guruhidagi bolalarning onalaridan olingan anketa-so'rovnomasi yordamida bolalarda qo'rquv-xavotirlarning alomatlari

Nomi	soni	Foiz
Yolg'izlik	16	14,4
Qorong'u-zulmat	18	16,2
Ota-onadan ajralish	19	17,1
Ertak qahramonlari	14	12,6
Ijtimoiy tahdidlar	17	15,3
Hayvonlar, hasharotlar	10	9,01
Boshqa qo'rquvlar	17	15,3
Jami	111	100

Bizga ma'lum bo'ldiki, muayyan xarakter xususiyatga ega bo'lgan ota-onalar farzandlari bilan xavotirli, shubhali, o'zlariga ishonchsiz munosabatlarni o'rnatishga moyil bo'ladilar. Bola bilan yaqin hissiy aloqa o'rnatgan holda, onalardagi xavotir bolaga transformatsiya bo'lishi bolalar bilan korreksiya ishlarini olib borish jarayonida hamda onalardan olingan anketa-so'rovnomasi natijasida shunday xulosaga kelindi. Tajriba guruhimizdagi bolalarning onalaridan biz tomonimizdan tuzilgan maxsus anketa-so'rovnomasi olindi. (anketa-so'rovnoma ilovada keltirilgan).

Onalardan olingan anketa so'rovnomasi natijasiga ko'ra, bolalardagi qo'rquv va xavotir alomatlarini onalar yordamida tahlil qildik.

Korreksion dastur samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba hamda nazorat guruhidagi bolalarda qaytadan R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning «Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash» metodini o'tkazdik. Korreksion dasturdan so'ng olingan natijalarni quyidagi 6-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

6 - jadval

**Sinaluvchilarning xavotirlanish darajasi dinamikasining o'zgarishi
(nazorat tajriba bosqichi) (Styudent t mezoni)**

Shkalalar	Guruh	n	o'rtacha qiymat	dispersiya	t
Shaxsiy xavotirlanishi	Tajriba guruh	111	2,67	0,69	-2,17*
	Nazorat guruh	107	2,93	0,84	
Vaziyatga doir xavotirlanish	Tajriba guruh	111	2,55	0,76	-2,17*
	Nazorat guruh	107	2,81	0,87	

*p<0,05

